

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**



“TASDIQLAYMAN”

G.Sh. Rixsiyeva

2020 yil 15 08



“KELISHILDI”

Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim
vazirligi

2020 yil 19 08

Ro‘yxatga olindi: № MD -5A120102
2020 yil 19 08

**MUTAXASSISLIKKA OID MAXSUS ADABIYOT TAHLILI
(YAPON TILI)**

FAN DASTURI

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar soha
Ta‘lim sohasi: 120000 – Gumanitar fanlar
Mutaxassisliklar: 5A120102 - Lingvistika (sharq tillari)
5A120101 – Adabiyotshunoslik (sharq tillari)

Toshkent – 2020



BP

	Кўшимча адабиётлар: 1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birligida barpo etamiz. – T.: "O'zbekiston", 2016.- 56 b. 2. Klaus von Heusinger, Petra B. Schumacher «Discourse prominence: Definition and application». Department of German Language and Literature, University of Cologne, Albertus-Magnus-Platz, 50923, Cologne, Germany www.elsevier.com/locate/pragma (scopus) 3. Toshinari Yasuda «An exploratory study for factorial validity of cognitive styles among Japanese adult EFL learners: from educational and cultural perspectives». Asian-Pacific Journal of Second and Foreign Language Education. https://doi.org/10.1186/s40862-018-0063-1 (scopus) 4. Алпатов В.М., Аркадьев П.М., Подлеская В.И., Теоретическая грамматика японского языка, т.1,2, М., «Наталис», 2008г. 5. Басс И. Проблемы современного японского языкознания лингвистика текста. -Санкт-Петербург. 2004. 6. 西隈俊哉、やさしい倫理的思考トレーニング、アルク、2009 年 7. 甲田・直美、文章を理解するとは：認知の仕組みから読解教育への応用まで、スリーエーネットワーク、2009 年 8. 沼田、外国語で発想するための日本語レッスン、白水社、2006. O'quv qo'llanma. Интернет сайтлари: 1. www.ziyo.net 2. www.wikipedia.com 3. www.geocities.co.jp 4. www.scopus.com
7.	Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim yo'nalishlari bo'yicha O'quv- uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashining 2020 yil "23" 08 dagi 4 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil "28" 08 dagi 452 -sonly buyrug'i bilan ma'qullangan fan dasturlarini tayanch oily ta'lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.
8.	Fan/modul uchun ma'sullar: Xalmurzaeva N.T– Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti, Ph.D.
9.	Taqrizchilar: Gafurova X.Sh.– O 'zbekiston davlat jahon diplomatiyasi va siyosati universiteti dotsenti, Ph.D. Ibragimova M.M. – O 'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Yapon tili va amaliyoti kafedrasida katta o'qituvchisi

Fan/modul kodi SAMAT1210		O'quv yili 2020-2021	Semestr 1-2-3	ECTS - Kreditlar 4-4-2	
Fan/modul turi Majburiy			Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4-4-2
1.	Fanning nomi		Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Mutaxassislikka oid maxsus adabiyot tahlili		150	150	300
2.	I. Fanning mazmuni Fanni o'qitishdan maqsad. Dasturda talabalarning bakalavriatda olgan bilimlari, o'tilgan darslar va ularning mazmun-mundariyasi hisobga olindi. Dars mavzulari shakl jihatdan bakalavriatdagi dars mavzulariga o'xshasa-da, bu borada magistrant talabalarning diqqati mavzuga oid ilmiy, publistik, badiiy asarlarni tarjima qilish va yapon lingvistikasi, iqtisodiyoti, siyotsatshunosligi va adabiyotshunosligi sohalari olimlari tomonidan yaratilgan nazariy manbalarni yanada chuqurroq, ilmiy nuqtai nazardan o'rganishga va analitik tahlil qilishga qaratiladi. Bu magistrantlarga aynan yapon tilidagi asosiy manbalarni tadqiq etish imkoniyatini beradi. Fanning vazifasi. Magistratura ta'limi mobaynida talabalardan mustaqil ravishda ilmiy tadqiqot bilan shug'ullanishi, ilmiy materiallar to'plashi va ular ustida ishlashi, ilmiy tahlil qila olishi, undan tashqari o'tgan davr mobaynida olgan bilimlarini boshqalarga bera olishi talab qilinadi. Buning uchun esa bakalavriatning boshlang'ich kurs talabalariga yetakchi o'qituvchilar ishtirokida yapon tilidan dars o'ta olish malakasi hosil qilinadi. II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) (O'quv rejada ma'ruza mashg'ulotlari nazarda tutilmagan) III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar Amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish yuzasidan kafedra tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy masalalar, keyslar orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, masalalar yechish, mavzular bo'yicha tarjima ishlari, yozgan esselari taqdimotlarini tayyorlash, normativ-huquqiy hujjatlardan foydalanish va boshqalar tavsiya etiladi. Amaliy darslarda ko'zda tutilgan mavzular: Matnlar klassifikatsiyasi, Abzats yapon matnida, Abzatsning funktsiyasi va				

	aniqlanishi, Bo'g'inlar orasidagi bog'liqlik, Yapon gazetalarini o'qish va tahlil qilish, Yapon jurnallarini o'qish va tahlil qilish, Ellipsis yapon matnida, Ellipsis qo'shimchalar va bog'lovchilarda, Ellipsisni o'rganish muammolari, Yapon va o'zbek tillarida matnlarda majhul nisbatni tarjima qilish va tahlil qilish muammolari, Yapon tilida esse o'qish, «Noda»shaklini «karada» va «vakeda» tugallanish shakllari bilan qiyoslash, E'lon va reklamalarni o'qish va tahlil qilish, Real voqealarni ma'nolarini va fikr mulohaza yuritishning to'g'riligini tahlil qilish, Esseni (Ogava Yoko) o'qish va tahlil qilish, Sukyaning va sukiming o'qish usullari yordamida turli sohalarga oid matnlarni o'qib analitik tahlil qilish, «No da»shakllarining o'rganish masalalari, Darak gaplarda «no da» shaklining qo'llanilishi, Esseni (Yoshimoto Banana) o'qish va tahlil qilish, Hikoyani (Otsuichi) o'qish va tahlil qilish, «Noda» shaklining tushuntirish va tasdiqlash funktsiyalarini tahlil qilish, Esseni (Levi Hideo) o'qish va tahlil qilish, “神様” hikoyani (Kavakami Xiromi) o'qish va tahlil qilish, Iqtisodiy va siyosiy gazeta matnini tahlil qilish, Hikoyani ミイラ (Yoshimoto Banana) o'qish va tahlil qilish, Yamada Minoruning 魚の骨 nomli essesini o'qish va tahlil qilish, «No da» shaklini «koto da» va «mono da» tugallanish shakllari bilan qiyoslash, 贈るかたちと意味 (評論) tanqidiy asarni (Noda Masaaki) o'qish va tahlil qilish, 阿辻哲次 (あつじてつじ) 国字作成のメカニズム o'qish, Fe'l va ko'makchi fe'l bilan bog'liq «no da» shakllarining ishlatilish xususiyatlari, Yapon tilida so'zlarning tartibining sintaktik tahlili, Ilmiy maqolalarni o'qish va analitik tahlil qilish. IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular: Mustaqil ta'lim quyidagi shakllarda tashkil etiladi: * bunda ular yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalarga ega bo'lishlari; * kerakli ma'lumotlarning izlab topishning qulay usullari va vositalarini aniqlashlari; * axborot manbalari va manzillaridan samarali foydalanishlari; * an'anaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar bilan ishlashlari; * electron o'quv adabiyotlar va ma'lumotlar banki bilan ishlashlari; * internet tarmog'idan foydalanishlari; * ma'lumotlar ba'zasini tahlil etishlari; ishlab chiqilgan yechim loyiha yoki g'oyani asoslashlari va mutaxassislar jamoasida himoya qilishlari kerak bo'ladi. 1. Hozirgi yapon tili, sheva materiallarini tarixiy-qiyosiy o'rganish til tarixini tadqiq etishning muhim yo'llaridan biri. 2. Yapon tilida so'z yasaliishi. 3. So'z va tushuncha. Atamalar Badiiy tarjimaning o'ziga xos xususiyatlari. 4. Tarjimon mahorati. Stilistika haqida ma'lumot.
--	---

	5. Yapon tili uslublari. So'zlashuv uslubi va badiiy uslub. Ilmiy uslub. Publisistika uslubi. Rasmiy uslub.
3.	V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida magistr: “Mutaxassislikka oid maxsus adabiyot tahlili” o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida magistr: - o'qitilayotgan sharq tilida yaratilgan maxsus adabiyot ustida ishlash, matn lingvistikasi: matnning fonetik, leksik-semantik, grammatik, uslubiy jihatlarini bilishi; - matn tilining fonetik asoslari, fonetik tizimning davriylik masalasi; matnda qo'llanilgan lug'at tarkibi, lug'at tarkibining genetik asoslari; so'zlarning ma'no xususiyatlari; leksik birliklarning morfologik, leksik-semantik tadqiqi; so'z yasaliishi masalalari; kontsept xususiyatlari, matnning sintaktik, semantik, lingvomadaniy va pragmalingvistik xususiyatlari; matnda qo'llanilgan iboralar, maqol va frazeologiyalarga xos sintaktik qurilmalar; soxalarga oid terminlar masalasi, turli soxalarga oid uslubning o'ziga xosligi; adabiy va ilmiy til uslublari va ularning matndagi ko'rinishi; matn talabi bilan til uslublarining tanlanishini tushuna olish <i>tajriba va ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak.</i>
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: Talaba “Mutaxassislikka oid maxsus adabiyot tahlili (yapon tili)” fanini o'zlashtirishda ta'limning innovasion usullaridan foydalanishi, yangi pedagogik, axborot va internet texnologiyalarini tadbiq qilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Fanni o'zlashtirishda o'quv-uslubiy ta'minot (darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, modul topshiriqlari)dan foydalanilish tavsiya etiladi. Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda turli metod va vositalardan, xususan, aqliy hujum, klaster, amaliy ish va didaktik o'yinlar, portfolio, keys-stadi, shuningdek, kompyuter dasturlaridan (AuditXP, 1S: Prof. Buxgalteriya, Buxgalteriya (VS), Balans, Microsoft Excel, Microsoft PowerPoint, TopS Business Integrator, Hyperion Enterprise, WebTrust, SysTrust) internet tizimlaridan foydalanish mumkin.
5.	VII. Kredtlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishini topshirish.
6.	Asosiy adabiyotlar: 1. Xalmurzayeva N., Yapon tilidagi maxsus adabiyot bo'yicha praktikum. O'quv qo'llanma. ToshDSHi, T.: 2009. 2. Халмурзаева Н., Проблемы чтения и анализа текста на японском языке, Учебное пособие. Т.: 2011. 3. あきら、まゆみ、速読の日本語、 The Japan Times、2006. 4. Sherov S., O'zbekcha-yaponcha-ruscha-inglizcha lug'at, T.: 2009. 5. Read Real Japanese Essays, Kodansya, -2009. – P-135.